

Farxodova Dilnoza Qudrat qizi  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti  
dilnozafarxodova3@gmail.com

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KASBIY METODIKA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV QOBILIYATNI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Boshlang'ich ta'lim tizimi, bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida kreativ qobiliyatni rivojlantirish, o'quvchilarning o'z fikrlarini ifoda etish, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada, boshlang'ich ta'limda kasbiy metodika tayyorgarligini rivojlantirishda kreativ qobiliyatni takomillashtirishning ahamiyati va usullari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, kasbiy metodika, kreativ qobiliyat, darslar, g'oya, jamiyat, ishtirok, rasm, musiqa, san'at.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация.** Система начального образования играет важную роль в интеллектуальном и творческом развитии детей. Это помогает развивать творческие способности в учебном процессе, повышать способность учащихся выражать свои мысли, решать проблемы и создавать новые идеи. В данной статье рассматриваются значение и методы совершенствования творческих способностей в развитии профессиональной подготовки в системе начального образования.

**Ключевые слова:** начальное образование, профессиональная методика, творческие способности, уроки, идея, общество, участие, рисование, музыка, искусство.

## IMPROVEMENT OF CREATIVE ABILITIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING IN PRIMARY EDUCATION

**Abstract.** Primary education system plays an important role in intellectual and creative development of children. It helps to develop creative abilities in the educational process, to increase students' ability to express their thoughts, solve problems and create new ideas. In this article, the importance and methods of improving creative ability in the development of vocational training in primary education are considered.

**Key words:** primary education, professional methodology, creative ability, lessons, idea, society, participation, drawing, music, art.

**Kirish (Introduction).** Kreativ qobiliyat o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g'oyalarni yaratish va muammolarni innovatsion usulda hal qilish qobiliyatidir. Boshlang'ich ta'limda bu qobiliyatni rivojlantirish, o'quvchilarning o'z-o'zini anglashiga, o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etishiga va jamiyatda faol ishtirok etishiga yordam beradi. Kreativ qobiliyat, shuningdek, o'quvchilarning o'rganish jarayonida qiziqishini oshiradi va ularni yanada faolroq ishtirok etishga undaydi.

Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Boshlang'ich ta'limda kasbiy metodika tayyorgarligi, o'qituvchilarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan usullarni o'z ichiga oladi.[1; 53-b]

O'qituvchilar, o'z metodikalarini yangilab, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishlari mumkin. O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv o'qitish metodlarini qo'llash muhimdir. Guruhli ishlar, muhokamalar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarga ijodiy loyihalar berish, ularning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda samarali usuldur. Loyiha asosida o'quvchilar o'z g'oyalari amalga oshirish, muammolarni hal qilish va natijalarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. San'at va madaniyat darslari, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Rasm chizish, musiqa, teatr va boshqa san'at turlari orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarga muammoli vazifalar berish, ularning analitik fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bunday vazifalar, o'quvchilarning muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi.[2; 84-b]

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshladi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog'i sifatida shakllanib boshlagan Innovatsion pedagogikada Ushbu terminga bod-bod duch kelmoqdamiz.

R.A.Mavlanova o'zining «Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya» nomli o'quv qo'llanmasida kreativlikning o'zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qo'llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlari maxsus ilmiy tatqiqot ob'ekti sifatida tatqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyati hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. Ko'plab ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik tushunachiga nisbatan bir-biriga zid bo'lgan quyidagi turli xil qarashlar majud. Bular:

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatleri majmuidir.
2. Kreativlik – bu insonning o'ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.
4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.
5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.
6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyadir.

Pedagog olimi R.A.Mavlanova an'anaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaralishini, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilganligi haqida quyidagicha fikr bildirganlar:

- kreativlik tafakkur sifatida (J.Gilford, Y.K.Tixomirov) yoki intellektual faollik sifatida (D.B.Bogolevskaya, L.B.Yermolayeva-Tomina),

- yoki shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi (Y.A.Ponomarev va boshqalar). Kreativlikni o'rganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy anrogogikada qo'llashning umumiy qonuniyatlari va o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi (V.M.Morozov). Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o'ta intellektual-evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrllovchi, tabaqalashtirilgan ta'lim sifatida qaraymiz.

Kreativlik- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida

o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin. O'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning maqolamiz ob'ekti bo'lgan o'qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi. Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olima R.A.Mavlanova tomonidan olib borilgan tatqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlash tirgan holda biz quyidagi fikrlarni e'tirof etmoqchimiz:

1. Kreativlik o'qituvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.
2. Kreativlik o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasidir. Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, o'qituvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.
3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalariga, echimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liqdir.
4. O'qituvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo'nalishlar va «Men» kontseptsiya»laridan kelib chiqadi. O'qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabidir. O'qituvchining kreativlik faoliyati, avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan xulosaga kelishimiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi. O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda ohar bir fanning o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning kreativligini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir.[3; 14-b]

Boshlang'ich ta'lim –bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limningbu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi vabuni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin.O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiyondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq.Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Kreativ fikrlash, muammolarni innovatsion usulda hal qilish imkonini beradi. O'quvchilar, turli vaziyatlarda yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradilar. Kreativ qobiliyat, shaxsning o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini erkin ifoda etishiga yordam beradi. Bu, o'quvchilarning o'zini anglashiga va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Kreativlik, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va jalb etuvchi qiladi. O'quvchilar, ijodiy faoliyat orqali o'rganish jarayonida ko'proq qiziqish va motivatsiya his qiladilar. Kreativ qobiliyat,

o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruhli ishlar va muhokamalar orqali o'quvchilar bir-birlari bilan samarali muloqot qilishni o'rganadilar. Zamonaviy jamiyatda kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlar, ish joylarida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarurdir. O'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish, ularni kelajakda raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Kreativlik, shaxsning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'quvchilar, o'z qobiliyatlarini kashf etish va yangi narsalarni o'rganish orqali o'zlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Umuman olganda, kreativ qobiliyatni rivojlantirish, nafaqat ta'lim jarayonida, balki hayotning barcha jabhalarida muhim ahamiyatga ega. Bu, o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va professional rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.[4; 42-b]

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Har kuni ijodiy mashqlar bajarish, fikrlarni kengaytirishga yordam beradi. Masalan, tasodifiy so'zlardan hikoya yozish yoki rasm chizish. Turli janrlardagi kitoblarni o'qish, yangi g'oyalar va fikrlarni kashf etishga yordam beradi. O'qish, fikrlarni kengaytiradi va yangi perspektivalar ochadi. Yangi faoliyatlar yoki hobbilarga qo'l urish, kreativ fikrlashni rag'batlantiradi. Masalan, musiqa chalish, rasm chizish, yoki yangi tillarni o'rganish. Boshqalar bilan fikr almashish va muhokama qilish, yangi g'oyalarni kashf etishga yordam beradi. Guruhli ishlar va ijodiy sessiyalar tashkil etish foydali bo'lishi mumkin. Dam olish va meditatsiya, ongni tinchlantiradi va yangi g'oyalar paydo bo'lishiga yordam beradi. Bu, kreativ fikrlash jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. O'zingizni ijodiy muhitda bo'lishga harakat qiling. Bu, rang-barang materiallar, ilhomlantiruvchi asarlar yoki tabiatda vaqt o'tkazish orqali amalga oshirilishi mumkin. O'z ishlaringizni qayta ko'rib chiqish va tahlil qilish, yangi g'oyalar va yondashuvlarni kashf etishga yordam beradi. O'z ijodingizni baholash va takomillashtirishga harakat qiling. O'z maqsadlaringizni belgilab, ularga erishish uchun o'zingizni rag'batlantiring. Bu, ijodiy jarayonni davom ettirishga yordam beradi. Kreativ o'yinlar va faoliyatlar, fikrlarni kengaytirishga yordam beradi. Masalan, brainstorming sessiyalari yoki ijodiy o'yinlar o'ynash. Kreativlikni rivojlantirish vaqt talab etadi. Sabrli bo'lish va davom etish, ijodiy qobiliyatlarni oshirishda muhimdir. Ushbu usullarni qo'llash orqali, siz o'z kreativ qobiliyatingizni oshirishingiz va yangi g'oyalar kashf etishingiz mumkin.[8; 34-b]

O'qituvchilar uchun samarali va ilhomlantiruvchi tavsiyalar quyidagilar:

Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini tushunishga harakat qiling. Ularning qobiliyatlari, qiziqishlari va o'rganish uslublarini inobatga olish muhimdir. Darslarni qiziqarli va ijodiy tarzda o'tkazing. O'quvchilarning fikrlarini rag'batlantirish uchun interaktiv faoliyatlar va o'yinlar qo'shing. O'z bilim va ko'nikmalingizni doimiy ravishda yangilang. Seminarlar, kurslar va onlayn resurslardan foydalaning. O'quvchilar bilan ochiq muloqot qiling. Ularning fikrlarini tinglang va dars jarayonida ularni jalb qiling. Hamkorlikni rag'batlantirish uchun guruhli ishlarni tashkil eting. O'quvchilarga qulay va xavfsiz muhit taqdim eting. [6; 10-b]

Ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishlariga imkon bering. Turli o'qitish uslublarini qo'llang (vizual, audial, kinestetik) va o'quvchilarning turli o'rganish uslublariga mos keladigan materiallar tayyorlang. O'quvchilarga o'zaro baholash imkoniyatini bering. Bu, ularning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'zaro fikr almashishga yordam beradi. Darslar uchun aniq maqsadlar va natijalarni belgilang. O'quvchilarni maqsadlarga erishishga rag'batlantiring. O'z fikrlaringizni va tajribangizni o'quvchilarga etkazishdan tortinmang. Bu, ularga ilhom berishi va o'rganishga qiziqishini oshirishi mumkin. O'quvchilarning o'rganish jarayonida sabrli bo'ling. Har bir o'quvchi o'z sur'atida o'rganadi, shuning uchun ularga yordam berishga tayyor bo'ling. Boshqa o'qituvchilar bilan tajriba almashish va hamkorlik qilish, yangi g'oyalar va yondashuvlarni kashf etishga yordam beradi. O'quvchilarga o'z o'rganish jarayonida mas'uliyat berish, ularning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu tavsiyalar o'qituvchilarga o'z darslarini yanada samarali va ilhomlantiruvchi qilishda yordam beradi.[7; 12-b] O'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega: ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish; tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish; keyslar bilan ishlash; guruhli ish shakllari va deblatlarni tashkil etish; o'quv loyihalarini tayyorlash; portfoliolarni shakllantirish; darsdan keyingi va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish. O'quvchilarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar,

kontseptsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.[5; 54-b]

#### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Boshlang'ich ta'limda kasbiy metodika tayyorgarligini rivojlantirishda kreativ qobiliyatni takomillashtirish, o'quvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar, zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning jamiyatda faol ishtirok etishiga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga yordam beradi. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Ya'ni o'qituvchilar ma'suliyatli va e'tiborli bo'lish zarur. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsizliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. - p. 260
2. Агабабян А. Р., Арутюнян Н. Д. К вопросу взаимосвязи креативности с личностными характеристиками // Ананьевские чтения, 2007: Материалы научно-практической конференции. СПб., 2007. С. 598-599.
3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015,40 bet
4. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua - Toshkent. 2016
6. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'llanma. -T.: Fan, 2005, 66 b.
7. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. -Toshkent, 2003. - 276 b.
8. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. -Toshkent: O'qituvchi, 1991.40bet.
9. Muqimjanovna, Mohira Muydinova, iKarimjonova Gulshanoy Sherah qizi. 2023. «JAMIYATDA BO'LAYOTGAN O'ZGARISHLARNING OILAGA TASIRI». Новости образования: исследование XXI века1 (6):1068-72. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3826>.
10. "Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :-Toshkent 2015
11. Davletshin M.G. Do'stmuhamedova Sh, Mavlanov M, To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil.
12. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya". T., TDPU 2007-y.
13. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya." T., 2013.